



TA'LIM TIZIMIDA BADIY KITOB O'QISH KO'NIKMASINI MAJBURIY ISH REJAGA KIRITISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18920566>

Norova Lola Xushvaqtzoda

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar maktabgacha va maktab
ta'limi bo'limining darsliklar bo'yicha metodisti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik faoliyat jarayonida badiiy adabiyot mutolaasini rivojlantirish hamda pedagoglarning badiiy kitob o'qish ko'nikmasini majburiy ish rejasiga kiritish masalalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Pedagog olimlarning qarashlari, xususan Qozoqboy Yo'ldoshevning badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlari hamda Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan g'oyalar asosida pedagoglarning mutolaa faoliyatini tizimli tashkil etish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari badiiy kitob mutolaasi pedagogning nutq madaniyati, ijodiy fikrlashi va pedagogik muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, badiiy adabiyot, mutolaa madaniyati, pedagog kompetensiyasi, kitobxonlik, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan keng dunyoqarash, boy tafakkur va yuksak ma'naviy salohiyatni talab qiladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptiruvchi shaxs sifatida ham muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Shu sababli pedagog shaxsining ma'naviy rivojlanishida badiiy adabiyot mutolaasi alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar muhim ahamiyatga ega. Davlat rahbari o'z nutqlarida kitob inson tafakkurini

rivojlantiruvchi, ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim manba ekanini ta'kidlab, yoshlar va pedagoglar orasida mutolaa madaniyatini keng rivojlantirish zarurligini qayd etgan. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda ham badiiy adabiyotning shaxs kamolotidagi o'rni keng yoritilgan. Jumladan, pedagog olim Qozoqboy Yo'ldoshev badiiy asar inson ruhiyatini tarbiyalashda beqiyos vosita ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy adabiyot orqali inson nafaqat bilim oladi, balki hayotiy qadriyatlarni anglaydi, estetik didi shakllanadi va tafakkuri rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyat davomida badiiy kitob mutolaasini majburiy ish rejasiga kiritish



ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida pedagogik tahlil, ilmiy kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Pedagoglarning mutolaa faoliyati ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlar hamda pedagogik tajribalar asosida o'rganildi.

Shuningdek, badiiy adabiyotning pedagog shaxsining rivojlanishiga ta'siri pedagog olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilindi. Xususan, Qozoqboy Yo'ldoshevning badiiy adabiyotning tarbiyaviy va estetik ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Badiiy mutolaaning pedagog shaxsining rivojlanishidagi o'rni

Badiiy adabiyot inson tafakkurini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U insonning ruhiy dunyosini boyitadi, estetik didini shakllantiradi hamda hayotiy tajribasini kengaytiradi. Pedagog olim Qozoqboy Yo'ldoshev badiiy asarning asosiy vazifalaridan biri inson qalbini tarbiyalash ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy asar o'quvchini hayotning murakkab jarayonlari bilan tanishtiradi, insoniy qadriyatlar haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Shu sababli pedagoglar uchun badiiy adabiyot mutolaasi nafaqat shaxsiy rivojlanish vositasi, balki tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishning muhim omili ham hisoblanadi. Badiiy asarlar pedagogning nutq madaniyatini ham

rivojlantiradi. Kitob mutolaasi orqali o'qituvchining lug'at boyligi kengayadi, fikrni ravon va aniq ifodalash qobiliyati shakllanadi. Bu esa pedagogik muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mutolaa pedagoglarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Badiiy asarlarda tasvirlangan voqealar, inson xarakterlari va ijtimoiy munosabatlar pedagogning hayotiy tajribasini boyitadi hamda ta'lim jarayonida yangi yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari

Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar muhim ahamiyatga ega. Davlat rahbari kitobni inson tafakkurini boyituvchi va ma'naviy kamolotga yetaklovchi muhim vosita sifatida e'tirof etadi. Ta'lim tizimida pedagoglarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Chunki o'qituvchi kitob o'qimasa, o'quvchilarda ham mutolaa madaniyatini shakllantirish qiyin bo'ladi. Shu sababli pedagoglar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyat davomida badiiy kitob o'qishni majburiy ish rejasiga kiritish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

- pedagoglarning mutolaa madaniyatini rivojlanadi;
- kasbiy va ma'naviy rivojlanish ta'minlanadi;



• pedagogik muloqot samaradorligi oshadi;

• ta'lim jarayoni yanada mazmunli tashkil etiladi;

• o'quvchilar orasida kitobxonlikka qiziqish kuchayadi.

Tadqiqot natijalari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muntazam badiiy adabiyot mutolaasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar dars jarayonida ko'proq ijodiy metodlardan foydalanadilar. Ularning nutqi boy, fikrlash doirasi keng hamda pedagogik muloqot jarayoni samaraliroq bo'ladi. Bundan tashqari, mutolaa pedagoglarning ruhiy barqarorligini saqlashga ham yordam beradi. Kitob o'qish jarayoni insonning ruhiy muvozanatini tiklaydi hamda kasbiy charchoqni kamaytiradi.

Eng muhimi, mutolaa bilan shug'ullanuvchi pedagoglar o'quvchilarda ham kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantira oladilar. Bu esa ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy kitob mutolaasi pedagog shaxsining kasbiy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Pedagogik faoliyat davomida badiiy adabiyot o'qishni majburiy ish rejasiga kiritish pedagoglarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini kengaytirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagog olim Qozoqboy Yo'ldoshevning ilmiy qarashlari hamda Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan kitobxonlikni rivojlantirish g'oyalari pedagoglar orasida mutolaa madaniyatini keng yoyish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois ta'lim tizimida pedagoglarning mutolaa faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish, badiiy kitob o'qishni kasbiy rivojlanishning muhim elementi sifatida e'tirof etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev Q. Badiiy adabiyot va shaxs tarbiyasi. – Toshkent.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
5. Musurmonova O. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent.
6. Zamonaviy pedagogika tadqiqotlari to'plami. – Toshkent.